



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI





Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, globallasuv va integrasiya jarayonlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan katta hayotga kirib kelayotgan yangicha fikrlaydigan, islohotlar samarasini ta'minlashga qodir malakali kadrlarga bog'liq.

Bu jarayon oliy ta'lim dargohlari oldiga ham katta vazifalar qo'yimoqda. Unda munosib ishtirok etish katta sharaf bo'lish bilan birga, ulkan mas'uliyat hamdir. Ishonch bilan ayta olamizki, Siz azizlar bilan ta'lim va tarbiya masalasi alohida ustuvor yo'nalish darajasiga ko'tarilgan shunday muhim pallada oldimizdagi vazifalarni sadoqat bilan ado qilamiz.

Kongratbay SHARIPOV
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

قۇرئانسىيا
КАТСКІЙ
УНИВЕРСИТЕТ

ТДІУ

YOSHDA

1931 - 2021

TARIX




O'ra Osiyo davlat universiteti binosi. 1927-yil.

Iqtisodchi mutaxassislarga talab ortib borayotganligini hisobga olib, 1931-yil 13-avgustda sobiq Ittifoq xalq komissarlari Kengashi qaroriga asosan Turkiston davlat universitetining iqtisodiyot va jamiyatshunoslik fakultetlari bazasida O'ra Osiyo moliya-iqtisodiyot instituti tashkil etildi. Natijada O'ra Osiyo respublikalarining moliya-kredit tizimlari uchun xodimlar tayyorlab beruvchi Toshkent Moliya-iqtisodiyot instituti vujudga keldi.

Bu O'zbekistonda iqtisodchi xodimlar tayyorlashning birinchi davri edi. 1931-yilning 1-sentabrida institutda birinchi qo'ng'iroq chalinib, mashg'ulotlar boshlandi.



Institutning birinchi rektori I. Xalikov majlis o'tkazmoqda. 1932-yil.



O'ra Osiyo moliya-iqtisod institutining (hozirgi TDIU) Toshkent shahri, Engels ko'chasi 58-uyda joylashgan birinchi o'quv binosi. 1932-yil.

1931–1941 yillargacha bo'lgan davrda institut o'zining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va tarbiyaviy ishlarini takomillashtirib, tinimsiz mukammallashtirib bordi.

1939-yilda institut qoshida dastlabki aspirantura tashkil etilib, unda besh kishi o'qiy boshladi.

1932-yilda institutga 47 ta talaba qabul qilingan bo'lsa, 1940-yilda esa bu ko'rsatkich 240, 1942-yilda 205, 1943-yilda 296 nafarga yetdi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan frontga safarbar qilinganligi sababli bitiruvchilar soni 1942-yilda 137 ta, 1943-yilda 27 ta, 1944-yilda 68 ta, 1945-yilda esa 42 kishini tashkil etdi.

1931-2021

1946-yilda Toshkent Moliya-iqtisod instituti tarkibiga urush boshlarida ko'chirilgan Leningrad Hisob-iqtisodiyot instituti kirdi. Bu institut moddiy-texnika bazasining boyishiga mutaxassisliklarni ko'paytirish va ikkita yangi fakultet – kredit-iqtisodiyot va hisob-iqtisod fakultetlarining tashkil etilishi turtki bo'ldi. Institutda moliya-bank tizimlari uchun kadrlar tayyorlashga jiddiy e'tibor berila boshlandi.



Toshkent xalq xo'jaligi institutining o'quv binosi (hozirgi 2-bino). 1980-yillar.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ko'p jihatdan kadrlarning iqtisodiyot ilmi bilan qurollanishiga, iqtisodiy idrok kuchiga ega bo'lishiga bog'liq. Shu boisdan ham TDIU o'zining bosib o'tgan 90 yillik tarixida xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ko'plab iqtisodchi kadrlarni tayyorlab keldi.

O'tgan davr mobaynida mazkur maskandan o'nlab akademiklar, minglab fan doktorlari yetishib chiqdi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun 200 mingdan ortiq kadrlar yetkazib berildi.



Iqtisod fanlari doktori, professor X.R. Sobirov ma'ruza o'qimoqda. 1970-yillar.

1947-yilda Toshkent Moliya-iqtisodiyot instituti qoshida yana ikkita fakultet – reja-iqtisodiyot va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda turli soha mutaxassislarini tayyorlab beruvchi kechki fakultet tashkil etildi.

1955-yilda moliya-iqtisod va kredit-iqtisod fakultetlari birlashtirilib, moliya-iqtisod fakultetiga aylantirildi. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda bilim olishga qiziqish kuchaygani hisobga olinib, sirtqi fakultet ham tashkil qilindi.

1960-yilning boshlarida respublikada birinchi marta rus tili va chet tillari kafedralarida magnitafon, diaproektor va boshqa moslama hamda uskunalar bilan ta'minlangan lingafon xonalari tashkil etildi.



TDIU hududi. 2001-yil.

MAQSAD VA

Bizning maqsadimiz — malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, bugun shiddat bilan amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang va xalqaro darajada faoliyat olib borishga qodir boʻlgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

VAZIFALAR

Mamlakatimizning ilm-fan, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan va mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bizning asosiy vazifamizdir.

UMUMIY STATISTIKA



512

PROFESSOR-
O'QITUVCHILAR



31

TA'LIM
YO'NALISHLARI



261

MUSTAQIL
TADQIQOTCHILAR



9

QO'SHMA TA'LIM
DASTURLARI



34

MUTAXASSISLIKLAR



112

DOKTORANTLAR



213

AUDITORIYALAR SONI



33

KAFEDRALAR



15 487

TALABALAR



14 408

BAKALAVRIAT



1 079

MAGISTRANT

SHU JUMLADAN

AKADEMIKLAR

2

FAN DOKTORI VA
PROFESSORLAR

54

FAN NOMZODLARI
VA PHD

153

ILMIY DARAJALAR

223

TOP-1000 TALIKDA
HIMOYA QILGANLAR

23

ILMIY SALOHIYAT
(2021)

53%

TALABALAR UMUMIY KONTINGENTI (yillar kesimida)



XALQARO REYTING



TIMES HIGHER EDUCATION IMPACT RANKING

2020 yil yakuniga ko'ra, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "THE Impact Rankings 2021" xalqaro reytingining asosiy hisoblangan BMTning 17 ta Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (Sustainable Development Goals) yo'nalishlarining barchasida ishtirok etdi.

www.timeshighereducation.com

601 - 800
TA'LIM SIFATI BO'YICHA



600+
ISH BILAN TA'MINLASH BO'YICHA

Dunyoning 94 ta mintaq va davlatlaridan qatnashgan 20 mingga yaqin OTMLari ishtirok etgan "THE Impact Rankings 2021" xalqaro reytingining Top-1000 taligidan o'rin oldi.

301 - 400
GENDER TENGLIGI BO'YICHA

MILLIY REYTING

3
O'RIN

WEBOMETRICS

xalqaro reyting agentligi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha 3-o'rin



www.webometrics.com

3
O'RIN

GUMANITAR VA IQTISODIY

soha bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingida 3-o'rin



www.tdi.uz

7
O'RIN

OTM TOP 10 LIGI

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari umumiy reytingida 7-o'rin



www.tdi.uz

7
O'RIN

Eng ko'p
ISH BERUVCHILAR BAHOSI
bo'yicha milliy reytingda 7-o'rin



www.tdi.uz

	Impact Rank*	Openness Rank*
	10012	6492
	11364	6492
	11255	6492
	15220	6492
	21951	6492
	21886	6492

5 18969

[University of Georgia](#)

6 22156

[Papua New Guinea University of Natural Resources and Environment \(University of Vudai\)](#)

RAHBARIYAT



**MANSUR PULATOVICH
ESHOV**
O'quv ishlar bo'yicha prorektor



**KONGRATBAY AVEZIMBETOVICH
SHARIPOV**
TDIU rektori



**SADIRDIN KARIMOVICH
XUDOYQULOV**
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
prorektor



**GULNORA QALANDAROVNA
ABDURAHMANOVA**
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor



**DILSHODJON ALIDJONOVICH
RAXMONOV**
Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor



**MAQSUDJON ABDULLAYEVICH
YULDASHEV**
Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor



**MUXIDDIN BAXRIDDINOVICH
KALONOV**
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi direktori

UNIVERSITET JAMOASI

Oliy o'quv yurti jamoasi sayi-harakatlarini quyidagi masalalarni bajarishga qaratilgan faoliyatni birlashtirish hisoblanadi: Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiya va raqamlashtirish asosida yuqori sifatli bakalavr va magistrlar tayyorlashni ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, yoshlarda vatanparvarlik, fuqarolik, o'z Vatani bilan faxrlanish, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy xususiyatlarni shakllantirish.



BIZNING BITIRUVCHILAR

OLDINGI SAFLARDA



**ABDUXAKIMOV AZIZ
ABDUKAHAROVICH**

Bosh vazirning o'rinbosari —
O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vaziri,
"Chorvoq" erkin turistik zonasi direksiyasi direktori,
"Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti rektori,
O'zbekiston shaxmat federatsiyasi raisi



**ABDURAXMONOV ODIL
KALANDAROVICH**

Toshkent davlat transport universiteti rektori



**ALLAMJONOV KOMIL
ISMAILOVICH**

Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va
rivojlantirish jamoat fondi Vasiylik kengashining raisi




**AXADOV SARVAR
SAIDJAXONOVICH**

"TEXNOPARK" mas'uliyati cheklangan
jamiyati rahbari



**AXMEDOV DURBEK
KUDRATILLAYEVICH**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor



**AXMEDOV UMID
MASHRABOVICH**

Microsoft kompaniyasining Sun'iy intellekt
arxitekturasi departamenti boshlig'i



**ALIMOV NAVRUZJON
RAIMDJANOVICH**

"UzAgroExportBank" boshqaruv raisi



**BOBOLOV TO'RA
ABDIYEVICH**

Surxondaryo viloyati hokimi, Senator



**BEGALOV BAXODIR
ABDUSALAMOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika
qo'mitasi raisi



**BUTAYEV ORIF
ALIBOYEVICH**

"Mikrokreditbank" ATB boshqaruvi raisi



**DAVLETOV RUSLANBEK
QUROLTAYEVICH**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri



**GADOYEV ERKIN
FAYZIYEVICH**

Oliy Majlis Senati Budjet va iqtisodiy islohotlar
masalalari qo'mitasi raisi



**IBRAGIMOV BAXTIYOR
NE'MATJONOVICH**

O'zbekistonning BMTdagi doimiy vakili,
Favqulodda va muxtor elchisi



**IBRAGIMOV FARXOD
ZAIROVICH**

IT Park mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori




**MIRZAYEV CHORI
SADIBAKOSOVICH**

"Turon bank" aksiyadorlik tijorat banki
boshqaruv raisi



**MUSAYEV BEHZOD
ANVAROVICH**

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri



**MAMATQULOV RUSTAM
O'KTAMOVICH**

"AGROBANK" aksiyadorlik tijorat banki
boshqaruv raisi



**ZAYNILOBIDDIN
NIZOMIDDINOV
SHAHOBBIDINOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
rahbari



**MAMARIZO NURMURATOV
BERDIMURATOVICH**

Markaziy bank boshqaruvi raisi



**NORQOBILOV BAHROMJON
TO'RAYEVICH**

O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni
rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi



**NORKULOV ILXOM
IBROXIMOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot
va kambag'allikni qisqartirish vazirining
birinchi o'rinbosari



**ORTIQXO'JAYEV JAHONGIR
OBIDOVICH**

Toshkent shahar hokimi, Senator



**QO'CHQOROV JAMSHID
ANVAROVICH**

Bosh vazirning moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni
qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinbosari –
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va
kambag'allikni qisqartirish vaziri



**RAXMATOV MURTAZO
AXMEDOVICH**

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
iqtisodchi, Senator,
"O'zbekiston paxta to'qimachilik klasterlari"
uyushmasi raisi

BIZNING BITIRUVCHILAR

OLDINGI SAFLARDA



**SAFAROV MADAMIN
ABDUGAPPAROVICH**
O'zbekiston MTRK raisi o'rinbosari



**SAIDOV BAXTIYOR
ODILOVICH**
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri



**SAIDOV SANJARBEK
KAMILDJANOVICH**
"KPMG AUDIT" MCHJ auditorlik
tashkilot Bosh direktori



**SAIFNAZAROV SAXIB
ISMAILOVICH**
O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat
ko'rsatish vaziri birinchi o'rinbosari,
«O'zsuvta'minot» Aksionerlik jamiyati raisi,
iqtisod fanlari nomzodi



**TASHXODJAYEV MUXTORXON
MAXSUDOVICH**
O'zbekiston Milliy Paralimpiya qo'mitasi raisi



**TURDIMOV ERKINJON
OQBO'TAYEVICH**
Samarqand viloyati hokimi, Senator



**UMAROV OTABEK
MUXAMMADALIEVICH**
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat
xavfsizlik xizmati rahbarining o'rinbosari,
Markaziy Osiyo MMA Konfederatsiyasi rahbari,
Osiyo Olimpiya Kengashi vitse-prezidenti



**UMURZOQOV SARDOR
UKTAMOVICH**
Bosh vazirning investitsiyalar va tashqi iqtisodiy
aloqalar masalalari bo'yicha o'rinbosari —
O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va
tashqi savdo vaziri



**XO'JAYEV JAMSHID
ABDUXAKIMOVICH**
O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri



**YUSUPOV AXMADBEK
TADJIYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi raisi



**SHARAXMETOV SHOXRUX
SHOTURGUNOVICH**
O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi
kurashish qo'mitasi raisi



**SHOABDURAHMONOV
RUSTAM MAVZUROVICH**
O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi raisi

AKADEMIKLAR



QALANDAR ABDURAHMONOV

G.V.Plexanova nomidagi Rossiya Iqtisodiyot
Universitetining Toshkentdagi filiali direktori



SAIDAXROR G'ULOMOV

O'zbek olimi va davlat arbobi, iqtisod fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi



IBROHIMJON ISKANDAROV

(1932—1921)

O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi,
Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti
sovrindori va "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
fan arbobi" unvoni sohibi



VLADIMIR VASILEVICH KIM

(1929-2021)

Yirik iqtisodchi olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi



RA'NO UBAYDULLAEVA

(1936—2020)

Mehnat iqtisodiyoti va mehnat resurslaridan foydalanish
muammolari sohasida yetakchi olim,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi



SATTOR TURSUNMUHAMEDOV

(1929—2020)

Ijtimoiy falsafa va sotsiologiya sohasidagi taniqli olim,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi



MUROD SHARIFXO'JAEV

(1932—2008)

Iqtisodchi olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy




KIRILL BEDRINTSEV

(1907—1995)

iqtisodchi olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining
muxbir a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi

AKADEMIK FAOLİYAT





1

Talabalar bilan
ishlash bo'limi

4

Akademik
faoliyatni
boshqarish
bo'limi

2

Ta'limni
kredit tizimini
boshqarish
bo'limi

AKADEMIK
FAOLIYAT VA
REGISTRATOR
BOSHQARMASI

5

Qabul jarayoni
va talabalar
registratsiyasi
bo'limi

3

Ma'lumotlar
bazasi bo'limi


6

Karyera markazi

AKADEMIK REGISTRATOR OFISI



Akademik registrator ofisi - talabalarga tez, sifatli va shaffof xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etildi. Akademik registrator ofisi - Talabalar bilan ishlash bo'limi hamda Qabul jarayoni va talabalar registratsiyasi bo'limlaridan iborat bo'lib, talaba va magistrlarga akademik transkript, to'lov shartnoma qog'ozi va boshqa ma'lumotnomalarni taqdim etish, o'qishini ko'chirish, qayta tiklash, o'qishdan chetlashtirish hamda talabalarga akademik ta'til berish, diplom (dublikat) berish jarayoni bilan bog'liq ishlarni tashkil etish, talaba va magistr hujjatlari yig'majildini saqlash, diplomlar haqida tasdiq olish va boshqa 30 dan ortiq xizmatlar ko'rsatiladi. Shulardan 15 dan ortig'i onlayn xizmatlarni tashkil etadi.



Xizmat turlari:

1. O'qishi to'g'risida ma'lumotnoma olish;
2. Diplom (dublikat) olish;
3. Harbiy bo'limdan ma'lumotnoma olish;
4. O'qishni ko'chirish haqida ma'lumot olish;
5. Akademik ta'til haqida ma'lumot olish;
6. Talabalar safidan chetlashtirish haqida ma'lumot olish;
7. O'qishni tiklash haqida ma'lumot olish;
8. Shaxsiy ma'lumotlarni o'zgartirish haqida so'rov jo'natish;
9. Karyera markazi haqida ma'lumot olish;
10. Ichki tartib qoidalar (Student Code of Conduct) haqida ma'lumot olish;
11. To'lov shartnomasini olish;
12. Universitetdagi mavjud kurs va markazlar haqida ma'lumot olish (Xalqaro Kembrij Kolleji, (ACCA)-Buxgalteriya kurslari, Avtomaktab, Malaka oshirish markazi, Axborot resurs markazi);
13. Talabalar turar joyi haqida ma'lumot olish;
14. Transkript olish;
15. "Moodle" platformasi orqali savollarga javob olish;
16. Shikoyat va takliflar jo'natish.



KARYERA MARKAZI



Karyera rivojlantirish markazining maqsadlari talabalarning shaxsiy o'sishi va malakasini oshirishda yordam berish, samarali xodim bo'lishiga va ularni o'z sohasida tajribasini oshirishga ko'maklashish, shuningdek jamiyatga salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ularni ish topishga yordamlashishdan iborat.

Har yili universitet hududida keng qamrovli "Karyera kuni" o'tkaziladi. Tadbirda O'zbekiston bo'ylab ko'plab taniqli ish beruvchi korxonalar ishtirok etadi. Mutaxassisligiga ko'ra ko'plab talabalar ish bilan ta'minlanadi.

FAN, TA'LIM, AMALIYOT



Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti qoshidagi "Bank va moliya" innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqot markazi

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrası qoshidagi Raqamli transformatsiya o'quv-ilmiy laboratoriyasi



Xalqaro turizm fakulteti qoshidagi
“Turizm va xizmat ko‘rsatish”
ilmiy-amaliy laboratoriyasi



Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti va
“KAFIL SUG‘URTA” kompaniyasining
“Buxgalteriya hisobi va sug‘urta ishi”
ilmiy-amaliy laboratoriyasi


Moliya va buxgalteriya hisobi
fakulteti qoshidagi “Statistika”
ilmiy-amaliy laboratoriyasi



TA'LIM TIZIMI

DOKTORANTURA

Fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli. Bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 16 nafar doktorant faoliyat olib bormoqda.



PHD


Tayanch doktorantura — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga davogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli. Bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 166 nafar doktorant faoliyat olib bormoqda.



MAGISTRATURA

Bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim hisoblanadi.

Bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining magistratura bosqichida 1098 nafar talaba tahsil olmoqda.



BAKALAVR

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'limdir.

Bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bakalavriat bosqichida 14 408 nafar bakalavr tahsil olmoqda.



AKADEMIK LITSEY

TDIU akademik litseyi — yangi turdagi o'quv muassasasi bo'lib, Davlat ta'limi standartlariga mos ravishda o'z faoliyatini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda litseyda 1000 nafarga yaqin o'quvchi tahsil olmoqda, ularga 50 dan ortiq malakali o'qituvchilar ta'lim berib kelmoqda. Litseyda "Aniq fanlar (iqtisod)" yo'nalishi bo'yicha chuqur bilim olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



FAKULTET VA KAFEDRALAR

01

IQTISODIYOT

Fundamental iqtisodiyot;
Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish;
Tarmoqlar iqtisodiyoti;
Inson resurslarini boshqarish.



KORPORATIV BOSHQARUV

Jahon iqtisodiyoti;
Korporativ boshqaruv;
Bank ishi va investitsiyalar;
Menejment.

02

03

MOLIYA VA BUXGALTERIYA

Buxgalteriya hisobi;
Moliyaviy tahlil va audit;
Moliya;
Soliqlar va sug'urta ishi;
Statistika.



XALQARO TURIZM

Marketing;
Turizm va servis;
Biznes boshqaruvi va logistika.

04

05

RAQAMLI IQTISODIYOT

Innovatsion ta'lim;
Iqtisodiyotda matematik metodlar;
Amaliy matematika;
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalar;
Iqtisodiy xavfsizlik.



IQTISODIYOT FAKULTETI



Fakultet dekani
Amirov Lochinbek
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori, PhD, dotsent





Iqtisodiyot fakulteti 1952-yilda Iqtisodiy rejalashtirish fakulteti nomi bilan tashkil etilgan. Hozirgi kunda fakultet "Iqtisodiyot" nomi bilan faoliyat yuritilib kelmoqda.

Bugungi kunda 77 dan ortiq professor-o'qituvchi tomonidan 1634 nafar talaba, shu jumladan 6 nafar xorijiy talabaga ta'lim berib kelinmoqda. Fakultet tasarrufida 5 ta kafedra faoliyat yuritadi. Bular - Fundamental iqtisodiyot, Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, Tarmoqlar iqtisodiyoti, Inson resurslarini boshqarish, O'zbek tili va adabiyoti.

Fakultet Saint Petersburg State University of Economics, Milliy tadqiqot yadro universiteti «MIFI», Buyuk Pyotr nomidagi Sankt-Peterburg politexnika universiteti, Ural davlat iqtisodiyot universiteti, Aristotle University of Thessaloniki, University of Bath, University Technology MARA kabi xorijiy oliy ta'lim muassalari bilan mustahkam amaliy hamkorlik o'rnatgan.

KORPORATIV BOSHQARUV FAKULTETI



Fakultet dekani
Xalikov Ulug'bek
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori, PhD

5230700
Bank ishi va auditi

5230200
Menejment

5231900
Korporativ boshqaruv

5231100
Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar





Bugungi kunda Korporativ boshqaruv fakultetida 120 nafar professor-o'qituvchi tomonidan 1470 nafar talaba, shu jumladan 22 nafar xorijiy talabaga ta'lim berib kelinmoqda.

Fakultet tasarrufida 5 ta kafedra faoliyat yuritadi. Bular – “Bank ishi va investitsiyalar”, “Jahon iqtisodiyoti”, “Korporativ boshqaruv”, “Menejment”, “Ingliz tili”. Professor-o'qituvchilar Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Indoneziya, Malayziya, Germaniya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va shu kabi boshqa davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida o'z malakalarini oshirib kelgan.



Korporativ boshqaruv fakulteti 1990-yil Xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti nomi bilan tashkil topgan. 2011-yil 3-oktabrdan Investitsion faoliyat, 2013-yil 2-yanvardan Bank ishi fakulteti deb nomlangan. 2016-yildan esa Korporativ boshqaruv fakulteti nomi bilan faoliyat yuritadi.

MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI FAKULTETI



Fakultet dekani
Aktam Burxanov
Prof. Iqtisodiyot fanlari
doktori





Fakultet nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy mamlakatlarda mehnat bozori uchun ham yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan.

A. Burxonov

FAKULTET MISSIONI

Moliyaviy, iqtisodiy, boshqaruv tahlillari va moliyaviy bilimlar bilan shug'ullanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kasbiy professionallik, tijorat va analitik fazilatlarini amalda qo'llay olish ko'nikmasiga ega kadrlar tayyorlash.



Ilm - insonni fazilat va hurmatga olib boruvchi nurdur!

M. Eshov



XALQARO TURIZM FAKULTETI



Fakultet dekani
Zufarova Nozima
Dotsent



Bakalavr

- 60412600 - Savdo ishi (turlari bo'yicha)
- 60412500 - Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
- 60412500 - Marketing (reklama ishi)
- 60411700 - Logistika (yo'nalishlar bo'yicha)
- 61010400 - Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
- 61010100 - Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
- 60411201 - Menejment: turizm biznesini boshqarish

Magistratura



- 5A230401 - Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
- 5A230501 - Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha)
- 5A232501 - Logistika (yo'nalishlar bo'yicha)
- 5A233601 - Savdo ishi (turlari bo'yicha)
- 5A610201 - Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
- 5A610301 - Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
- 5A610301 - Turizm (ziyorat turizmi)



Xalqaro turizm fakulteti 1999-yilda tashkil etilgan.

Xalqaro turizm fakultetining aksariyat professor-o'qituvchilari turizm va servis sohalari bo'yicha Polsha, Germaniya, Finlandiya, Avstriya, Turkiya, Misr, Yaponiya, Xitoy va boshqa bir qator xorijiy davlatlarda malaka oshirgan.

Fakultetda 1700 nafar talaba, shu jumladan 5 nafar xorijlik talaba tahsil olmoqda. 2020/2021 o'quv yili yakunida fakultetni 214 nafar talaba, shu jumladan 24 nafar talaba imtiyozli diplom bilan tamomladi.

2021/2022-o'quv yilining 1-semestrda 2 nafar talaba almashinuv kurslari bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlari va Janubiy Koreya davlatlarida o'qimoqdalar.

Talabalar fakultetning ochiq osmon ostida joylashgan o'quv amaliy laboratoriyasida va 4 yulduzli mehmonxona talablariga javob beradigan amaliy o'quv markazida, shuningdek bojxona-logistika hujjatlarini yuritishni o'rgatuvchi maxsus laboratoriyada nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlaydilar.



RAQAMLI IQTISODIYOT FAKULTETI



Fakultet dekani
Alimardonov Ilhom
Iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent





Raqamli iqtisodiyot fakulteti 1963-yilda “Iqtisodiy axborotlarni avtomatlashtirilgan usulda qayta ishlashni tashkil etish” mutaxassisligi bo‘yicha talabalar qabul qila boshlagan.

1968-yilda “Iqtisodiy kibernetika” mutaxassisligining ochilishi bilan “Iqtisodiy kibernetika fakulteti tashkil etildi.

2020-yildan boshlab Raqamli iqtisodiyot fakulteti nomi bilan atala boshlandi.

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda fakultet jamoasi yetarli darajada ilmiy salohiyatga ega bo‘lib, ayni paytda 88 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat olib bormoqdalar. Ulardan 34 nafari ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilardir.

MAGISTRATURA BO'LIMI




Bo'lim boshlig'i
Akbarov Nodir
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori, PhD





Magistratura bo'limi 1999-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda Magistratura bo'limida 34 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlab kelinmoqda. Hozirgi kunda tinglovchilar soni 1098 nafar bo'lib, ularga 115 nafar malakali pedagoglar dars beradi. Magistratura tinglovchilari 2 yil davomida, 3 semestr o'quv jarayonlarida ishtirok etib, 2 oylik malakaviy amaliyot hamda 2 oy ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boradilar.

XALQARO ALOQALAR





XALQARO ALOQALAR



Bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xorijiy **9 ta** oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirib kelmoqda. Jami **1 441 nafar** talabalar ushbu qo'shma ta'limda tahsil olishmoqda.

38 ta xorijiy davlatlarning **163 ta** oliy ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

Hamkorlikning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish, o'zaro tajriba almashish, birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy nashrlar chop etish, professor-o'qituvchilar, doktorantlar va talabalar almashinuvini amalga oshirish, qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Chet ellik o'qituvchilar soni
50 nafar

Xorijiy davlatlar fuqarolari bo'lgan talabalar soni
81 nafar



QO'SHMA TA'LIM DASTURLARI



УРАЛЬСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

FH KREMS
UNIVERSITY OF APPLIED
SCIENCES/AUSTRIA



Qo'shma ta'lim dasturlarini
muvofiqlashtirish bo'limi
boshlig'i

Nasimov Baxtiyor
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori, PhD

Ayni vaqtda ikki tomonlama diplom beruvchi qo'shma ta'lim dasturlari ishga tushirilgan. Jumladan, 2018-2019 o'quv yilidan boshlab **Rossiya Federatsiyasining Ural davlat iqtisodiyot universiteti** va **Avstriyaning Krems amaliy fanlar universiteti** bilan qo'shma ta'lim dasturi asosida mutaxassislar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi. Unda Menejment (eksportga yo'naltirilgan menejment), Menejment (turizm va dam olish menejmenti), Iqtisodiyot (Moliya va kredit), Iqtisodiyot (korporativ Iqtisodiyot va biznes-loyihalarni boshqarish), Iqtisodiyot (Biznes-analitika) kabi ta'lim yo'nalishlari malakali professor-o'qituvchilar tomonida o'qitiladi.

QO'SHMA TA'LIM DASTURLARI

London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi (LSE) akademik rahbarligi asosida London universiteti (University of London) bilan xalqaro qo'shma ta'lim dasturini yo'lga qo'ydi. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab mazkur qo'shma ta'lim dasturiga quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul amalga oshiriladi:

Buxgalteriya hisobi va moliya (Accounting and finance);

Iqtisodiyot (Economics);

Bank ishi va moliya (Banking and finance).



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Finlyandiyaning Turku amaliy fanlar universitetining hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturi 2021-yil yo'lga qo'yilgan.

Ushbu qo'shma dasturda talabalar 1+3 shaklida ta'lim oladilar hamda Finlyandiya kompaniyalariga ishga qabul qilinadilar. Ya'ni, dastur ishtirokchilari dastlabki 1 yil O'zbekistonda va keyingi 3 yil Finlyandiya ta'lim oladilar. Shuningdek, talabalar Finlyandiyaning AKT kompaniyalari va startaplarida amaliyot o'tashadi va ishga qabul qilinadi. Mazkur loyiha Yevropaning eng yirik innovator tadbirkori hisoblangan Piter Vasterbaka (Peter Vesterbacka)ning yetakchiligida amalga oshirilmoqda hamda dastur innovatsion yondashuvlari asosida tashkil etiladi. Qo'shma ta'lim dasturi bakalavriat bosqichida 2021-yil yanvar oyidan "Axborot texnologiyalari va tadbirkorlik" hamda 2021-yil sentyabr oyidan "Biznes axborot texnologiyalari va tadbirkorlik" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarni o'qishga qabul qiladi.



TURKU AMK

TURKU UNIVERSITY OF
APPLIED SCIENCES

TURUN YLIOPISTO
VAPAAN KANSAN LAHJA
VAPAALLE TIETEELLE



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Moskva tadbirkorlik akademiyasi o'rtasidagi qo'shma ta'lim dasturi tashkil etilgan. Ushbu ikki diplomli dastur bo'yicha talabalar jahon standartlariga muvofiq 3+1 tizimida tahsil oladilar, ya'ni uch yil davomida O'zbekistonda, to'rtinchi yili esa Moskvada (Rossiya Federatsiyasi) ta'lim olishadi.

Mutaxassisliklar:

1. "Iqtisodiyot" (tarmoqlar va tarmoqlar bo'yicha);
2. "Menejment" (tarmoqlar va tarmoqlar bo'yicha);
3. "Mehmonxona biznesini tashkil etish va boshqarish";
4. "Menejment" (sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish).



2021-yil Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va "MIFI" Milliy yadroviy tadqiqot universiteti (Rossiya Federatsiyasi) o'rtasidagi hamkorlik asosida "Iqtisodiy xavfsizlik" mutaxassisligi bo'yicha "1+1" qo'shma magistratura dasturi tashkil etilgan. Ta'lim berish jarayonlari 2021/2022 o'quv yilida TDIU da (to'lov-kontrakt asosida), 2022/2023 o'quv yilida MIFI MYATU da (grant asosida) tashkil etiladi.

MIFI MYATU OTMlarning xalqaro TOP-1000 reytingiga kirgan bo'lib, bitiruvchilarga beriladigan diplom O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinadi (nostrifikatsiya talab etilmaydi).



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Ufa davlat neft texnika universiteti bilan hamkorlikda ikki mamlakat diplomini taqdim etuvchi magistratura bosqichi uchun qo'shma ta'lim dasturi joriy etildi.

Ta'lim yo'nalishlari:


Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha);
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar.






Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda M.Riskulbekov nomidagi Qirg'iziston iqtisodiyot universiteti hamkorligida qo'shma ta'lim dasturi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Qirg'iziston Respublikasida tashkil etilgan O'zbek-Qirg'iz iqtisodiyot fakulteti bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari uchun qabul e'lon qiladi.



2021-yil Indoneziya Ta'lim universiteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'rtasida qo'shma ta'lim dasturi tashkil etildi. Unga ko'ra, bakalavr yo'nalishlari bo'yicha 2+2, Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 1+1 ta'lim olish tizimi asosida o'qitiladi. Indoneziya Ta'lim universiteti ta'lim yo'nalishlari mahalliy hamda Germaniyaning AQAS (Agency for Quality Assessment) tomonidan akkreditatsiya qilingan hamda QS World University of Ranking by Subject ning Top-300 taligidan o'rin olgan.

O'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar Buxgalteriya hisobi, Marketing, Iqtisodiyot, Moliya, Menejment, Inson resurslarini boshqarish (HRM) yo'nalishlari bo'yicha ikki universitetning oliy ma'lumot va malaka diplomiga ega bo'ladilar.



ANJUMANLAR SAROYI




Madaniyat saroyi — 425 o‘ringa ega bo‘lib, 5/9 m hajmdagi LED monitor bilan jihozlangan. Akustik imkoniyatlari turli madaniy tadbirlarni sifatli tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur zalda muntazam ravishda xalqaro darajadagi konferensiyalar, uchrashuvlar tashkil etib kelinadi. Jumladan, O‘zbekiston - Rossiya oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining forumi, O‘zbekiston - Yaponiya oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining forumi, “O‘zbekiston Respublikasi Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarni sanab o‘tish mumkin.

Kichik majlislar zali — universitetning eng qadimiy poydevori hisoblangan 2-binoda joylashgan.

Qatnashchilar uchun 26 o'ringa ega stol va kuzatuvchilarga mo'ljallangan 50 o'rinli ushbu zalda kelishuvlar imzolanadi va hamkorlar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi.



Faollar zali — 7-sonli o'quv binosida joylashgan bo'lib, 200 o'rinli sig'imga ega.

Ushbu maskanda talabalar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari tashkil etiladi, teatr to'garaklarida badiiy asarlar sahnalashtiriladi. Talaba-yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularni teatr san'atiga muhabbat ruhida tarbiyalash, jamiyatda uchraydigan ijtimoiy muammolar va salbiy holatlarni sahna ko'rinishlari orqali keng jamoatchilikka yetkazishda muhim maskan.

AUDITORIYALAR



Hozirgi talabalar an'anaviy uslubda o'qishni istamaydi, aksincha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim tarafdori. Shuning uchun axborot texnologiyalarini ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamlashtirish davr talabi. Endi professor-o'qituvchilar ham odatiy usulda o'qitmaydi. Chunki rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham intellektual salohiyati yuqori avlod voyaga yetmoqda. Bunday muhitda kamol topayotgan yoshlarning fikrlashi va axborotni qabul qilish tarzi oldingi fikr yuritish va bilim olish jarayonidan tubdan farq qiladi.



Shuning uchun ham Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bevosita ish beruvchilar ishtirokida o'quv-amaliy auditoriyalar, ilmiy tadqiqot laboratoriyalar, innovatsion ta'lim markazlari tashkil etilayapti. Bunday auditoriya, laboratoriya va markazlar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar xususiyatidan kelib chiqqan holda foydalanishga topshirilayapti.

Ushbu jarayonda bitiruvchilarimizga asosiy ish beruvchi tashkilotlar - davlat organlari, sug'urta kompaniyalari, tijorat banklari, IT parklar ko'makchi bo'layotgani quvonarli hol.

SMART ROOM

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida Xitoyning ZTE kompaniyasi bilan hamkorlikda interaktiv va innovatsion, zamonaviy SMART auditoriyasi tashkil etilgan.

Mazkur "Smart Classroom", ya'ni "aqlli auditoriya" tizimi ZTE dasturiy ta'minoti, elektron displey, elektron doska va planshetlardan foydalanib, talabalar iqtidori rivojlanishini kuzatishga hamda talabalar bilimlarini baholash uchun har bir talabaga alohida test yoki butun guruhni test nazoratidan o'tkazib tekshirishga yordam beradi.

Har bir dars serverga yoziladi, bu esa talabalar va o'qituvchilarga har qanday qurilmadan foydalangan holda ma'ruzani ko'rib chiqishga imkoniyat yaratadi.



Universitet hududida jami 205 ta auditoriyalar mavjud bo'lib, bir vaqtning o'zida 5145 nafar ta'lim oluvchilarga xizmat ko'rsatadi.

Elektron kutubxona imkoniyatlari tufayli talabalar kitoblardan masofadan turib foydalanishi mumkin, bu esa o'quv qo'llanmalar taqsimlanishini ancha tezlashtiradi.

Masofaviy ta'lim tizimi o'qituvchilarga intellektual auditoriyadan chiqmasdan talabalarni masofadan o'qitishga hamda chet el universitetlari professor-o'qituvchilari bilan aloqalar o'rnatishga imkon beradi.



KUTUBXONA

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazi O'zbekistonda yirik axborot maskanlaridan biri bo'lib, u universitetning eng katta o'quv va ilmiy yordamchi bo'linmalaridan hisoblanadi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining axborot-resurs markazining tashkil topishi universitetning tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq.

Universitet tashkil etilgan yili kutubxona fondida atigi 38 ming kitob bor edi. 1960-yilda 360 ming, 2005-yilga borib 460 ming turli adabiyotlarga ega edi, hozirgi paytda 800 mingga yaqin adabiyotlar mavjud.



AXBOROT - RESURS MARKAZI



Hozirgi kunda markaz fondini nafaqat an'anaviy kitoblar, vaqtli matbuot nashrlari bilan balki yangi elektron axborot manbalari, audio va video ma'ruzalar bilan to'ldirish vazifasi ham bajarilib kelindi.

Chet ellardan keltirilgan adabiyotlar soni 12 mingga yaqin nusxani tashkil etadi.

Xalqaro kitob almashuvi borasida ham juda ko'p kitoblar, gazeta-jurnallar, oynoma va solnomalar olingan.

Axborot-resurs markazida ARMAT elektron dasturiy baza shakllantirilgan bo'lib, 2000 dan ortiq turli nomdagi darslik va o'quv qo'llanmalarni elektron katalogi va elektron shakli ARMAT elektron bazasiga kiritildi.



ILMIY-TADQIQOT ISHLARI

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengashlar

08.00.01

08.00.02

08.00.06

“Iqtisodiyot nazariyasi”

“Makroiqtisodiyot”

“Ekonometrika va statistika”



08.00.07

08.00.08

“Moliya, pul muomalasi va kredit”

“Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy
tahlil va audit”



08.00.11

08.00.13

08.00.15

“Marketing”

“Menejment”

“Kichik biznes va tadbirkorlik”




08.00.17

“Turizm va mehmonxona
faoliyati”



ILMIY FAOLIYAT NATIJALARI

Ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligi (ming so'm)




Ilmiy tadqiqot ishlari tarkibi



■ Fundamental
 ■ Amaliy
 ■ Xo'jalik shartnomalari
 ■ Jami

ILMIY SALOHIYAT



“UNIVERSITET 3.0”

XALQARO, O’QUV ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR MARKAZI

Markaz TDIUning xalqaro o’quv, ilmiy-innovasion va axborot-kommunikasiya tadqiqotlari bilan shug’ullanadigan bo’linmasi hisoblanadi.

Markazning asosiy maqsadi universitetni xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, respublika iqtisodiyoti sohasida yetuk kadrlarni tayyorlaydigan va chuqur ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshiradigan flagman oliy o’quv yurtiga aylantirishdan iborat.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xalqaro reyting ko’rsatkichlari

2021 yilda
BMT ning 17ta
“Barqaror rivojlanish
maqsadlari” ko’rsatkichlari
asosida

TIMES HIGHER EDUCATION xalqaro
reyting agentligining ma’lumotlariga
ko’ra, ilk bora **IMPAKT RANKING**
2021 ko’rsatkichi bo’yicha
TOP-1001+ maqomiga ega
bo’ldi

**TIMES
HIGHER
EDUCATION
WUR**
(World University
Ranking) ko’rsatkichi
bo’yicha

2021 yil
“REPORTER”
maqomiga ega bo’ldi

WEBOMETRICS
agentligi reytingiga
ko’ra Respublika
OTM lari orasida
3 o’ringa ega
bo’ldi

ISTIQBOLDAGI STRATEGIK MAQSADLAR



Univesitetning xalqaro nufuzini oshirish, QS reyting agentligi yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish



THE reyting agentligi yuqori reyting ko'rsatkichlariga (WUR TOP-1000) erishish bo'yicha tizimli ishlarni olib borishsh



"Webometrics" global reyting tizimida universitet pozitsiyasini yanada mustahkamlash bo'yicha ishlarni olib borish



"Scopus" "WoS" bazalari maqolalar chop etishni muvofiqlashtirish va maqolalar sonini yiliga 200 taga yetkazish




Indoneziyaning ta'lim universiteti bilan xalqaro qo'shma ta'lim dasturini ta'lim + ilmiy tadqiqot + innovatsiyalar transferi formatida rivojlantirish



Missouri State
UNIVERSITY

AQSH ning Missouri davlat universiteti bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini ta'lim + ilmiy tadqiqot + innovatsiyalar transferi formatida tashkil qilish



Xalqaro grantlar va loyihalarda ishtirok etish. Xo'jalik shartnomasi asosidagi ilmiy tadqiqot ishlarini tizimli olib borish



Harakatlar strategiyasida iqtisodiy rivojlanish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi va istiqboldagi strategik vazifalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va rivojlantirish



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI “O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI



Markaz respublikada iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va isloh qilish ilmiy muammolari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi yetakchi ilmiy tashkilotlardan biri hisoblanadi.



“Demografiya va mehnat bozori”

“Moliya bozori va moliya-bank tizimini rivojlan-tirishning metodologik muammolari”

“Ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirish va hududlarni kompleks”

“Iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirishning ilmiy muammolari”

“Fan va ta’lim integratsiyasi”

Markazda
5 ta sektor
faoliyat ko’rsatadi

13 nafar
ilmiy xodim

Jumladan,
11 nafar ilmiy
darajali ilmiy
xodimlar

Shundan,
5 nafar fan
doktori (DSc)

6 nafar fan
nomzodi
(PhD)

Ilmiy
salohiyat
85 foiz

YOUNG ENTREPRENEURS GENERATOR



BIZNES INKUBATOR

Toshkent davlat iqtisodiyet universitetining «Young Entrepreneurs Generator» biznes-inkubatori 2020-yil tashkil topgan.

Biznes-inkubatorning asosiy maqsadi innovatsion va tadbirkorlik g'oyalarini tijoratlashirish jarayonini tashkil qilish, shuningdek, bozor iqtisodiyoti voqeligi va tadbirkorlik faoliyati talablariga mos mutaxassislarni shakllantirishdan iborat.



START-UP



Digital Economy Incubation center

“Digital Economy” inkubatsiya markazining asosiy maqsadi universitetda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida startap loyihalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, soha bo'yicha talabalarga innovatsion faoliyatni tashkil etishga ko'maklashish, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqish va texnik qo'llab-quvvatlash, shuningdek axborot texnologiyalar bo'yicha talaba-yoshlar uchun o'qishni tashkil etishdan iborat.

2021-yil Inkubatsiyada qatnashish uchun jami 48 ta loyiha ro'yxatdan o'tdi. Ular orasidan 15 ta istiqbolli deb hisoblangan startap loyihalar bepul Inkubatsiya uchun tanlab olindi.

Inkubatsiyada ishtirok etayotgan startaperlar o'z loyihalari bilan TDIU nomidan turli tanlov, grant va tadbirlarda faol ishtirok etishdi. Xususan, shu davr mobaynida 8 ta investor bilan uchrashuv tashkil etildi. Shuningdek, 2 ta xalqaro va 4 ta mahalliy tanlovlarda hamda 3 ta Grant loyihalarda muvofaqiyatli ishtirok etishdi.

INNOVATION





MASTER-KLASS



MA'NAViy-MA'RIFIY TADBIRLAR





TALABA YUTUQLARI





Korporativ boshqaruv fakulteti talabasi Asila Mirzayorova Tokio-2020 Paralimpiya o'yinlarida ayollar o'rtasida bo'lib o'tgan uzunlikka sakrash musobaqasining T11 klassida ishtirok etib, kumush medal sohibasi bo'ldi.



Iqtisodiyot fakultetining 2-bosqich talabasi Abduqayumov Abdumalik Nizomjon o'g'li 28 iyul – 3 avgust kunlari Bolgariyaning Blagoevgrad shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro talabalar matematika olimpiadasida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.



Xalqaro turizm fakulteti va magistratura bosqichi bitiruvchisi Dmitriy Shokin 2015-yil Rossiyaning Chelyabinsk shahrida bo'lib o'tgan Jahon chempionatida O'zbekistonlik taekvondo ustalari orasida birinchi bo'lib oltin medalini qo'lga kiritdi.



Korporativ boshqaruv fakulteti 3-kurs talabasi Guljanoy Naimova Tokio-2020 Para taekvondo bo'yicha olimpia o'yinlari chempioni va oltin medal sohibasi.




Iqtisodiyot fakulteti talabasi Dostonbek Rustamov Nursulton shahrida o'tkazilgan "MDHning eng yaxshi talabasi-2020" xalqaro tanlovida "Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni boshqarish" yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

MUSTAQIL TA'LIM

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida malakali va har tomonlama salohiyatli kadrlarni tayyorlash, buning uchun ularning faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilayapti.

Ayni vaqtda universitetda ta'lim jarayoni onlayn va an'anaviy tarzda tashkil etilgan bo'lib, talabalar uchun kunduzgi, sirtqi, maxsus sirtqi ta'lim shaklida tahsil olish imkoniyati yaratilgan.

Shuningdek, universitet hududida tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, davlat boshqaruvi organlarining ilmiy tadqiqot, o'quv va amaliyot laboratoriyalari barpo qilindi. Bu o'z navbatida talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan parallel ravishda mustahkamlash imkonini beradi.





SPORT

Universitetimizda talabalar uchun barcha sport turlari bilan shug'illanish uchun zamonaviy shart sharoitlar mavjud. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti sport maydonlarida Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti tashabbusi bilan sportning mini futbol, voleybol, badminton, stol tennisi va shaxmat turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etiladi. Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan sport musobaqalarida fakultetning besh yuzga yaqin talaba ishtirok etadilar.





TA'TIL



Tashabbuskor va intiluvchan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan yozgi-qishki o'quv oromgohiga respublikamizning turli hududlaridan 600 nafardan ziyod yoshlar jalb etiladi. Ikki hafta davomida ishtirokchilar bahs-munozara klubi, madaniyat va san'at, biznes va tadbirkorlik, Internet, jamoatchilik bilan ishlash, horijiy tillar, informatsion texnologiyalar, jami 13 ta yo'nalishlar bo'yicha qiziqarli darslarda ishtirok etishadi.

Shuningdek, oromgohda ko'plab ko'ngilochar madaniy tadbirlar, turli hil sport musobaqalari va madaniyat va san'at namoyondalari bilan uchrashuvlar o'tkazib kelinadi.

HORDIQ



MILLIY AN'ANALAR





Har bir millat o'ziga xos an'ana va qadriyatlari bilan ajralib turadi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati va madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda vujudga kelgan.

Ana shunday an'ana va qadriyatlarimizni yanada ulug'lash, ularni o'sib kelayotgan avlodlarga yetkazib berish maqsadida, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida "Navro'z" umumxalq bayrami, "Sumalak sayli" kabi talaba-yoshlar festivali o'tkazish muntazamlik kasb etadi.

Ushbu sayl va tadbirlar davomida fakultetlar o'zlariga birlashtirilgan respublikamiz 14 hududining o'ziga xos urf-odat va an'analari aks ettirilgan milliy kiyim va milliy raqslarini namoyish etishadi. Talabalarning chiqishlari "Eng jozibali milliy raqs ijrochisi", "Eng yorqin milliy liboslar namoyishi" hamda "Eng uyushgan jamoa" nominatsiyalari bo'yicha taqdirlanib boriladi.

Bunday tadbirlar talaba-yoshlarning milliy qadriyatlarga sodiqlik va vatanparvarlik ruhida tarbiya olishlarida muhim sanaladi.

IJTIMOIIY HAYOT



Universitetda talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida talabalar turar joylarida, fakultetlarda talaba-yoshlarning qiziqishlariga muvofiq 20 dan ortiq fan, sport, kasbiy va ijodiy to'garaklar tashkil etilgan.

Bundan tashqari "Zakovat", "Eng bilimdon kitobxon", "Start-up" loyihalar tanlovlari, yozuvchi va adiblar bilan uchrashuvlar, bayram tadbirlari va sport musobaqalari, huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari o'tkazib borilmoqda.





Universitetda ta'lim-tarbiya maslahatchilari faoliyati keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, har bir akademik guruh talabalarining "ma'lumotlar banki", "talabalarning psixologik portreti" yaratilgan. TTJlarda yashovchi, xususiy xonadonlarda ijarada yashovchi, o'z uyidan qatnovchi, yaqin qarindoshinikiga turuvchi talabalar xaqida ma'lumotlar aniqlanib, monitoring qilib boriladi va reja asosida ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirib borilmoqda.


MUZEY





“Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tarixi” muzeyi 1998 yilda tashkil etilgan bo‘lib, u yetti bo‘limdan iborat. Muzeyda universitet tashkil etilganidan buyon to hozirgi kungacha bosib o‘tgan shonli yo‘li, turli yillarda rektor vazifasida ishlaganlar va ular haqidagi ma‘lumotlar, tarixiy hujjatlar, fotosuratlar, bitiruvchilarning vinetkalari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, faxriy yorliqlar, turli mukofotlar, ilmiy ishlar va dissertatsiyalar, xorijiy oliy o‘quv yurtlari tomonidan berilgan sovg‘alar asosida yoritilgan. Muzey zallari va bu yerda jamlangan eksponatlar bilan tanishgan har bir tashrif buyuruvchi universitetning tarixi haqida mukammal ma‘lumotga ega bo‘ladi.

MUQIMIY IJODI



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li adabiy-ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib qilishga mas'ul oliy ta'lim dargohi hisoblanadi.

O'tgan so'nggi bir yil davomida universitet jamoasi Muqimiy adabiy merosini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha yirik masshtabli loyihalar va ishlanmalarni amalga oshirdi.



MUQIMIY
1850 - 1903



Qo'qon pedagogika instituti bilan hamkorlikda "Muqimiy izidan" nomli ekspeditsiya tashkil etildi; "Muqimiy" ko'krak nishoni va stipendiyasi ta'sis etildi;

muqimiymerosi.uz nomli axborot portali ishga tushirildi;

Universitet hududida Muqimiy hayoti va ijodiga oid tarixiy majmua barpo etildi;

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va "O'zbekkino" milliy agentligi hamkorligida "Muqimiy" tarixiy-badiiy filmini suratga olindi;

Adib hayoti va ijodini yorituvchi "Muqimiy" mobil ilovasini ishlab chiqildi.

QABUL JARAYONI

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga qabul jarayonlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha (kunduzgi va sirtqi ta'lim shakli) o'rta umumta'lim maktablarining 11-sinfini va kasb-hunar kollejlarni bitirganlar uchun Davlat test markazi tomonidan Matematika, Xorijiy til, O'zbekiston tarixi, Ona tili fanlaridan 2 bosqichli test sinovlari o'tkaziladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha (kunduzgi va sirtqi ta'lim shakli) texnikumlarni bitirganlar suhbat asosida 2-kursdan tahsil olishlari mumkin.

Maxsus sirtqi ta'lim shaklida o'qish istagida bo'lganlardan kamida 5 yillik ish staji talab qilinadi va ular suhbat asosida talabalikka qabul qilinadi.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish istagini bildirganlar imtihon jarayonlarida tanlagan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha saralab olinadi.

Magistraturaga qabul jarayonida tanlangan mutaxassislik fanlari va xorijiy tilga oid talabgorlarning bilimlari sinovdan o'tkaziladi.

Qo'shma ta'lim dasturlariga qabul hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.



Darhaqiqat, bunday OTM respublikamizda yetarli darajada. Iqtisodiyot sohasida esa TDIUning mavqeyi, nufuzi ayniqsa yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham TDIU iqtisodiyot sohasining menejment, marketing, biznes iqtisodiyoti, turizm kabi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha, tayanch oliy o'quv yurti deb tan olingan. Bunday sharaflni vazifani ado etishda TDIUga nihoyatda katta mas'uliyat ham yuklaydi.



O'zbekiston Respublikasi, 100066,
Toshkent shahar, Islom Karimov ko'chasi, 49



info@tsue.uz
www.tsue.uz



Tel.: (+99871) 245-42-43; 232-60-03; 239-01-49.
Faks: (+99871) 239-41-23

CREATORS OF THE FUTURE

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

G'oya muallifi:
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich

Tuzuvchi:
Qo'shboqov Oybek Shovqiyevich

Dizayner:
Abdullayev Azamat Akar o'g'li

Foto mualliflari:
Hakimov Akmal Alisher o'g'li
Sadullayev Daniyar Baxtiyar o'g'li

